



## INGLIZ TILI DARSLARIDA O'YIN METODIDAN FOYDALANISH (YUQORI SINFLAR UCHUN)

**Komiljonova Shahrizoda Xushnud qizi**  
*Samarqand Davlat Chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Turli yoshdagi o'quvchilarni o'qitish jarayonida o'qituvchilar ko'pincha bolalarda darsda uyg'onish faolligi muammosiga duch kelishadi. Ko'pincha an'anaviy ish shakllari o'quvchilarning dars faoliyatiga qo'shilishiga va ularning kognitiv qiziqishlarining paydo bo'lishiga yordam bermaydigan holatlar mavjud. Ayniqsa, chet tili darslariga nisbatan bu muammo o'smirlar bilan ishlashda namoyon bo'ladi. Agar boshlang'ich mактабда darslarni o'tkazish usulining o'zi turli xil kulgili qo'shiqlar, o'yinlar va hokazolardan foydalanishi o'z ichiga olsa, o'smirlik davrida ushbu ish shakllariga qiziqish, albatta, yo'qoladi va qiziqarli o'quv usullarini tanlash murakkablashadi. Bu maqolada yuqori sinf o'quvchilarida darsga bo'lgan ishtiyoqni o'yinlar orqali rivojlantirish haqida yortilgan.

**Kalit sozlar:** lug'at, prinsip, kognitiv, innovatsion, mimika, harakatli o'yinlar.

So'nggi kunlarda xorijiy tillarini o'r ganishga bolgan ehtiyoj oshib borayotganligi va muhim o'r in kasb etayotganligi sababli, tillarni boshlang'ich sinflaridan tortib oliv ta'lim muassasalarida ham o'rgatilmoqda. Bu esa bevosita darslarni yanada innovatsion va qiziqarli tarzda o'qitishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Asosan o'quvchilar boshlang'ich sinfdan yuqori sinfga ko'chish jaroyinida o'qishga bo'lgan ishtiyoqi susaygandek boladi va hatto ayrim o'quvchilar umuman darsga bo'lgan qiziqishini yo'qotadilar. Bunda albatta ularni yana darslarga faol qatnashishga chorlash biroz qiyin va kop harakat talab qiladigan vazifaga aylanadi. Bunday vaziyatlarda har xil metodlardan foydalanish eng yaxshi natija beradigan chora demakdir. Faqat darslik asosida ananaviy o'qitish davri o'tdi deb ayta olamiz. Ayniqsa xorijiy tillarni o'qitish xususan ingliz tilini o'qitishda o'qituvchilar bir qancha qiyinchiliklarni o'z boshidan kechirishadi. Nafaqat ingliz tili balki har qanday tilni o'r ganish va albatta o'qtish oson emas. Yangi so'zlarni tinimsiz yodlash, so'zlashish qoidalarini o'r ganish, grammatik to'g'ri yozish bularni barchasi o'r ganish va o'rgatish uchun ancha vaqt talab etadi. Qisqa vaqt ichida muakammal ta'lim berish uchun har xil strategiyalardan (metodlardan) foydalanish maqsadga muvofiq.



**Game-based learning (game method)** - bu o'quvchilarga har qanday mavzu yoki fanni oson o'rganishda yordam beradigan va tobora ommalashib borayotgan ta'lim strategiyalaridan biridir.

2018- yilda Amerikalik fan olimlari o'tkazgan tadqiqot, o'yin metodi o'quvchilar fanlarni yaxshiroq tushunishida katta va muhim rol o'ynashini yana bir bor isbotlab berdi. O'yin metodidan foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini oshiradigan qiziqarli o'quv muhitini yaratishlari mumkin. Quyida ingliz tili darsida qo'l keladigan va sinalgan bir nechta o'yinlar haqida malumot berilgan:

**1. Board race** Bu o'yin o'rgatilgan lug'atni qayta takrorlash uchun mo'ljallangan juda quvnoq o'yin hisoblanadi. Bir hafta oldingi o'rgatilgan lug'at bo'ladimi yoki aynan o'sha kun o'rgatilgan lug'at bo'ladimi farqi yoq bu o'yin o'quvchilarga so'zlarni tezda yodlashda va qayta takrorlashda katta yordam beradi. O'yin darsni boshida o'quvchilarni aktiv holatga keltirish uchun foydalaniladi. Bu o'yin qanday olib boriladi?

- Bu o'yin sinfdagi o'quvchilarni ikkita guruhga( joiz bo'lsa, o'quvchilarning soniga qarab 3 yoki 4 ta guruhga) ajratib olishdan boshlanadi.
- Har bir o'quvchiga do'skaga yozishga mo'ljallangan har hil rangdagi markerlar beriladi.
- Va so'zlarni yozish uchun har bir guruhga doskadan chiziqlar chiziq orqali joy ajratiladi.
- Va birorta mavzu aytildi. O'quvchilar shu mavzuga doir sozlarni 2 daqiqqa(har bir guruh ishtirokchisi uchun) ichida yozishlari kerak.
- Har bir guruh har to'gri yozilgan va mavzuga doir so'z uchun 1 ballni qo'lga kiritadi.

Bu o'yin grammatika va lug'at boyligini oshirishda yordam beradi.

## **2. The Mime**

Miming - bu o'yin o'quvchilar o'zlari o'rgangan zamon va fe'llarni mashq qilishning ajoyib usuli. Ushbu o'yin har qanday yosh guruhida ishlaydi, hattoki kattalar yosh bolalarga qaraganda tez charchab qolishiniyam ko'rishimiz mumkin. Bu o'yin lug'at boyligini oshirishda va asosan og'zaki nutqni rivojlantirishda yordam beradi.

Qanday olib boriladi?

- Darsdan oldin o'qituvchi kichkina qog'ozchalarga har xil harakatlarni yozib (misol uchun idishlarni yuvish, suv ichish) chiqadi va bitta qutichaga soladi.
- O'quvchilar jamoa qilib birlashtiriladi



• Va har bitta jamoadan bitta oquvchi chiqadi. Ikkala jamoa ishtirokchisiga bir xil harakat ko'rsatish uchun beriladi. Ikkala o'quvchi ham mimika va qo'l harakatlari orqali qog'ozdagi mashqni guruhdoshlariga ko'rsatishadi.

- Qaysi jamoa birinchi bo'lib to'g'ri javobni topsa, osha guruh ball oladi.
- O'yin har bitta o'quvchi biitadan harakatni ko'rsatib bergunga qadar davom etadi.
- O'yin ohirida ballar hisoblanib, g'olib jamoa aniqlanadi.

O'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchining o'zi kognitiv o'yinlarni ishlab chiqishi va ularning samaradorligini amalda sinab ko'rishi mumkin. O'yinlarni tashkil etishda quyidagi printsiplardan foydalanish muhim:

- Hayrat
- Jamoviy yoki guruhli ish
- Tabaqalashtirilgan yondashuv
- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.

### **O'quv jarayonida o'yinning ro'li.**

O'yin shaxsiy rivojlanish uchun ham muhimdir, chunki uning rivojlanishi davomida musobaqada qatnashgan o'quvchi haqiqatan ham o'z jamoasiga yordam berishni xohlaydigan, to'g'ri javob topishga harakat qiladigan, faol bo'lgan dars vaziyati yaratiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday vaziyatlar nafaqat kuchli, balki zaif talabalarga ham o'zini namoyon qilish imkonini beradi. Ko'pincha, yaxshi ko'rsatkichlari bilan ajralib turmagan talabalar bu erda o'zlarini butunlay boshqacha nuqtai nazardan ko'rsatishlari va o'yinning faol ishtirokchisiga aylanishlari, o'z jamoasining g'alabasiga hissa qo'shishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan o'yinlardan foydalanish zaif bolalar uchun muhim muvaffaqiyat omili bo'lib, ularda fanga qiziqish uyg'otishi va uni o'rganishdagi keyingi muvaffaqiyatlari uchun asos bo'lishi mumkin.

O'yin usullari chet tilini o'qitishning eng samarali usullaridan biridir, chunki ularning psixologik-pedagogik asosi o'yin faoliyati bo'lib, u shaxsning aqliy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. O'rta mакtabda chet tili darslarida o'yin usullaridan foydalanish o'smirlarning kognitiv ehtiyojlarini qondiradi. O'yin fikrlash jarayonlarini faollashtiradi va chet tilini o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Намазова А.А., Досжан Г.А. Modern methods of using games in teaching English. 2019



2. Qodirova G.O., Xudoyorova F., Til o'qitishda o'yin metodidan foydalanish. - Samarqand.:2021.
3. <https://www.i-to-i.com/tefl-blog/tefl-classroom-and-expert-advice/tefl-classroom-games/>
4. <https://www.gooverseas.com/blog/10-best-games-esl-teachers>